



ORIENTFINANSBANK

"Orient Finans" XATB

Boshqaruvining

2026 yil 13 yanvar dagi
6-26 -sonli majlis bayoni bilan

"TASDIQLANGAN"

Boshqaruv Raisi v.b
Sh.Sh. To'yboyev

M.O'.



Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste'molchilarning "Orient Finans" XATB tizimida berilda amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish to'g'risidagi

NIZOM

1 – tahrirda

Boshqaruv a'zolari:

Bosh buxgalter

Boshqaruv Raisi
O'rinbosari

B.E. Normatov

Yuridik xizmat departamenti
Direktori

T.U. Umarov

Boshqaruv Raisi O'rinbosari –
Ijroiya apparati Rahbari

I.T. Tursunov

Kreditlash departamenti
Direktori

Z.Z. Ro'ziyev

Ushbu hujjat "Orient Finans" XATB xususiy mulki bo'lib, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan. Ushbu hujjatni to'liqligicha va/yoki ayni bir qismini, ko'chirma nusxalarini yaratish yoki bank hodimi bo'lmagan uchinchi shaxslarga Bank rahbariyati bilan kelishmagan holda taqdim qilish taqiqlanadi.

Hujjat kodi

140-470

Amal qilish muddati

21 JAN 2026

dan

21.01.2031 gacha

Uzaytirilgan

gacha

TOSHKENT 2026



HUQUQIY EKSPERTIZA

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomning (Adliya vazirligida 2000 yil 05 aprelda 916-son bilan ro'yxatga olingan) 3.1-bandi talablariga muvofiq Yuridik xizmat departamenti ushbu ichki me'yoriy hujjatning amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida «Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiyinalayotgan iste'molchilarning "Orient Finans" XATB tizimida berilda amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish to'g'risida"gi Nizom huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.


Bankning mazkur Nizomi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 28-oktabrdagi (O'zRes AVdagi ro'yxat raqami: 3030-11-son) "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizomiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar asosida ishlab chiqilgan

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid emas.

Yuridik xizmat departamenti

Direktori

T.U.Umarov

[illegible]



MUNDARIJA

1. UMUMIY QOIDALAR
2. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING MAZMUNI
3. KREDIT SHARTNOMALARINI RESTRUKTURIZATSIYA QILISHNING ASOSLARI
4. KREDIT SHARTNOMALARINI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TURLARI
5. QARZ OLIVCHILARNING ARIZALARINI QABUL QILISH VA RO'YXATGA OLISH TARTIBI
6. ARIZAGA ILOVA QILINADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI
7. ARIZALARNI KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI
8. ARIZALARNI KO'RIB CHIQISH, BANK TOMONIDAN QAROR QABUL QILISH TARTIBI, BAHOLASH MEZONLARI
9. QARZ OLUVCHIGA QAROR TO'G'RISIDA XABAR BERISH TARTIBI VA MUDDATI
10. ARIZA QANOATLANTIRILGAN TAQDIRDA KREDIT SHARTNOMASIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI
11. ARIZANI QANOATLANTIRISHNI RAD ETISH ASOSLARI VA TARTIBI
12. YAKUNIY QOIDALAR



1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan qarz oluvchilarning "Orient Finans" XATB tizimida berilgan amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda – "NIZOM") quyidagi hujjatlar:

1.1.1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun (ro'yxat raqami O'RQ-580, 2019 yil 05 noyabr);

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonun (ro'yxat raqami O'RQ-530-II, 2003 yil 30 avgust);

1.1.3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

1.1.4. "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami AV-916, 2000 yil 05 aprel);

1.1.5. "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami AV-3427, 2023 yil 18 aprel);

1.1.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 14.07.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2696

1.1.7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 28.10.2025 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3030-11

1.1.8. shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan;

1.2. Ushbu hujjatning maqsadlari moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari tufayli kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishda qiyinchilikka duch kelgan qarz oluvchilarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlarini tartibga solish, bank va qarz oluvchi o'rtasidagi kredit-huquqiy munosabatlarda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni saqlashga ko'maklashish, muammoli kreditlarning kelib chiqishini oldini olish, kredit portfelining sifatini yaxshilash va bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni kamaytirishdan iborat.

1.3. Ushbu hujjatning vazifalari: moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari tufayli kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishda qiyinchilikka duch kelgan qarz oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, qarz oluvchilarning amaldagi kredit shartnomalari shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqishning yagona, shaffof va aniq tartibini belgilash, kredit munosabatlarida bank va qarz oluvchi o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash, kredit portfelining barqarorligini saqlash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bank faoliyatida xatarlarni samarali boshqarishga ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq kreditlarni restrukturizatsiya qilish amaliyotini joriy etish.

1.4. Ushbu hujjatning funksiyalari: qarz oluvchilarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) bo'yicha arizalarini qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish jarayonini tashkil etish, Arizalarda ko'rsatilgan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar va fors-major holatlarini baholash hamda ularning asoslanganligini aniqlash, kreditni restrukturizatsiya qilishning maqbul shakllarini (to'lov muddatini uzaytirish, foiz



stavkasini qayta ko'rib chiqish, jarima va penyalarni kamaytirish yoki bekor qilish va boshqa choralar) belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish, Arizalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar to'g'risida qarz oluvchilarni belgilangan tartibda va muddatlarda xabardor qilish, ariza qanoatlantirilgan taqdirda, kredit shartnomasi va unga ilova hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlash, restrukturizatsiya qilingan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilish va nazoratini amalga oshirish, kreditlarni restrukturizatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish hamda qarz oluvchilarga teng va adolatli munosabatda bo'lishni ta'minlash.

1.5. Ushbu Nizom moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit majburiyatlarini bajarishda qiyinchilikka duch kelgan, "Orient Finans" XATB tizimida amaldagi kredit shartnomalariga ega bo'lgan jismoniy shaxs–qarz oluvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING MAZMUNI

2.1. Moliyaviy qiyinchiliklar - qarz oluvchi daromadlari yoki moliyaviy resurslari kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlarni fors-major hodisalar asosida o'z vaqtida amalga oshirish uchun yetarli bo'lmagan yoki yetmaslik holati.

2.2. Murakkab hayotiy vaziyatlar - qarz oluvchining shaxsiy hayotidagi kutilmagan holatlar (ya'ni tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlarga olib kelgan kasalliklar natijasida yuzaga kelgan va tasdiqlangan I guruh nogironlik, yagona boquvchisini yo'qotganlik, sudning kuchga kirgan hukmiga asosan odam savdosi jinoyati yuzasidan jinoyat predmeti – jabrlanuvchisi deb e'tirof etilgan shaxslar, baxtsiz hodisa, kasallik yoki boshqa obyektiv sabablarga oqibatida sudning qaroriga asosan qarz oluvchi yoki kafil aqli noraso yoki muomalaga layoqatsiz deb topilishi) natijasida kredit bo'yicha to'lovlarni belgilangan muddatda amalga oshira olmasligi holati.

2.3. Fors-major holatlari - kutilmagan, oldindan prognoz qilinmaydigan va qarz oluvchiga bevosita bog'liq bo'lmagan, tashqi sharoitlar (tabiiy ofatlar, urush, favqulodda vaziyatlar kabi) natijasida kredit to'lovlari to'liq yoki qisman amalga oshirishni imkonsiz qiluvchi holatlar.

2.4. Restrukturizatsiya (kredit shartnomasini o'zgaritirish) - kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan kredit to'lovlarining majburiy tartibini moslashtirish, shu jumladan to'lov muddatini uzaytirish, foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish, jarima va penyalarni kamaytirish yoki boshqa shartlarni mijoz uchun qulaylashtirish bo'yicha bank va qarz oluvchi o'rtasida kelishilgan mexanizm sifatida tushuniladi.

2.5. Ariza - bankka kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish yoki restrukturizatsiya bo'yicha bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi rasmiy yozma so'rov (murojaat) sifatida ko'riladi, u bank tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

2.6. Bankning mas'ul xodimi - arizalarni qabul qilish, ro'yxatga olish, arizaga ilovalarning to'liqligini o'rganish va ko'rib chiqish uchun Bankning vakolatli bo'linmasi muhokamasiga kiritishga mas'ul bo'lgan xodim;

2.7. Bankning vakolatli bo'linmasi – bankning mas'ul xodimi tomonidan muhokamaga kiritilgan arizalarni ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organ. Mazkur Nizom doirasida vakolatli organ sifatida Bankda faoliyat yurituvchi kredit qo'mitasi tushuniladi.

2.8. Bankning tarkibiy bo'linmasi - "Orient Finans" XATB tizimidagi Amaliyot boshqarmasi, BXM va BXOlari tushuniladi.



2.9. Kredit shartnomasi qo'shimcha kelishuv - qarz oluvchi va bank o'rtasida mavjud kredit shartnomasiga kiritiladigan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi yozma kelishuv bo'lib, u kredit shartlari, to'lov muddati, foiz stavkasi, jarima va peniyalar miqdori, shuningdek boshqa kredit shartlariga taalluqli elementlarni o'z ichiga oladi.

2.10. Qaror - ariza bo'yicha Bankning vakolatli bo'linmasi tomonidan rasmiy qabul qilingan, kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish yoki rad etish to'g'risidagi yozma xulosa.

2.11. Arizachi - "Orient Finans" XATB tizimida amaldagi kredit shartnomasi bo'lgan va moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli kredit to'lovlari amalga oshirishda qiyinchilikka duch kelganlik holatlari yuzasidan restrukturizatsiya (kredit shartnomasini o'zgartirish) qilish uchun ariza bergan jismoniy shaxs.

2.12. Tegishli hujjatlar - arizaga ilova qilinadigan, qarz oluvchining moliyaviy holati, daromad manbalari, hayotiy vaziyatlarini tasdiqlovchi hujjatlar, bank tomonidan belgilangan boshqa ma'lumot va hujjatlar.

2.13. Arizalarni tahlil qilish - arizachining moliyaviy holati, kredit tarixi, daromad va xarajatlarni baholash, shuningdek kredit xavf-xatarini tahlil qilishning boshqa vositalari orqali kredit shartnomasini o'zgartirish yoki restrukturizatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash.

2.14. Moliyaviy xavflarni aniqlash - qarz oluvchining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga doir potentsial xavflarni tahlil qilish.

2.15. Baholash mezonlarini ishlab chiqish - arizani qanoatlantirish yoki rad etish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida Tavakkalchilikni boshqarish Departamenti tomonidan xavf-xatarni baholash mezonlarini belgilash.

2.16. Kredit xavfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar - arizalarni ko'rib chiqishda kredit shartnomasiga kiritiladigan o'zgarishlar va qo'shimchalar (muddatni uzaytirish, foiz stavkasi, jarima va penaltylarni o'zgartirish) bo'yicha Tavakkalchilikni boshqarish Departamenti tomonidan beriladigan tavsiyalar.

2.17. Monitoring va nazorat - arizalar bo'yicha qarorlar qabul qilinganidan so'ng, ijro etilishini va kredit shartnomasi o'zgarishlarining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini kuzatish.

2.18. Statistik hisobotlarni tayyorlash - arizalar bo'yicha moliyaviy xavf-xatarlar, qarorlar natijalari va ijro monitoringini hisobga olgan holda, ichki va tashqi audit hamda bankning ichki nazorat tizimiga hisobotlar taqdim etish.

3. KREDIT SHARTNOMALARINI RESTRUKTURIZATSIYA QILISHNING ASOSLARI

3.1. Kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilishning asoslari deb, qarz oluvchi bilan bank (yoki moliya tashkiloti) o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasining dastlabki shartlarini o'zgartirish imkoniyatini yuzaga keltiradigan obyektiv va tasdiqlangan holatlar tushuniladi.

3.2. Restrukturizatsiya qilishning asoslari quyidagilardan iborat:

3.2.1. Moliyaviy qiyinchiliklar:

3.2.1.1. Qarz oluvchining vaqtincha daromadlari yoki moliyaviy imkoniyatlarining pasayishi natijasida, kredit shartnomasida belgilangan muddat va miqdordagi to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishning qiyinalish belgilariga ega bo'lishi.

3.2.1.2. Asosiy belgilari:



1) Qarz oluvchining rasmiy daromadlarining 3 oy yoki undan ortiq muddat davomida 70% dan ortiq miqdorda pasayishi. (O'zini o'zi band qilgan shaxslarga nisbatan nizomning boshqa me'zonlari qo'llaniladi);

2) Ko'rib chiqilayotgan vaqt davomida qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish qobiliyatini izchil ravishda buzgan boshqa tasdiqlangan moliyaviy qiyinchiliklar.

3.2.1.3. Restrukturizatsiya moliyaviy qiyinchilikning vaqtincha ekanligini va qarz oluvchining kelajakda to'lov qobiliyatini tiklay olish istagi va imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3.2.2. Murakkab hayotiy vaziyatlar:

3.2.2.1. Qarz oluvchining shaxsiy hayotiga bevosita ta'sir etuvchi, kutilmagan va og'ir oqibatlarga olib kelgan favqulodda holatlar tufayli kredit majburiyatlarini bajarishning vaqtincha ravishda qiyinalish belgilariga ega bo'lishi.

3.2.2.2. Asosiy belgilari:

1) Qarz oluvchiga yoki unga qaram bo'lgan shaxsga og'ir kasallik tashxisi qo'yilganligi va bunga rasmiy tibbiy hujjatlar (kasalxona yoxud ekspertiza xulosalari) bilan tasdiqlangan I guruh nogironlik maqomi berilganligi;

2) Qarz oluvchining yagona boquvchisini yo'qotganligi (o'limi) va buni tasdiqlovchi hujjatlar (o'lim guvohnomasi) mavjudligi;

3) Sud hukmi bilan qarz oluvchining odam savdosi jinoyati jabrlanuvchisi sifatida e'tirof etilganligi va bu holat uning moddiy ahvoriga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganligi.

3.2.3. Insonparvarlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Restrukturizatsiya qarz oluvchining hayotiy darajasini yaxshilash va unga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

3.2.4. Fors-major (favqulodda kuchlar) holatlari:

3.2.4.1. Qarz oluvchining irodasi va faoliyatidan tashqarida yuzaga kelgan, oldindan ko'rib bo'lmaydigan, qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan va tashqi omillar (tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, harbiy harakatlar, davlat tomonidan e'lon qilingan favqulodda holatlar va shu kabilalar) natijasida kredit to'lovlarini amalga oshirishning mutlaqo imkonsizligi belgilariga ega bo'lishi.

3.2.4.2. Asosiy belgilari:

1) Davlat organlari tomonidan rasman e'lon qilingan tabiiy ofat (zilzila, toshqin, ko'chki) yoki favqulodda vaziyat zonasi hududida qarz oluvchining yashash joyi yoki mol-mulkingin joylashganligi;

2) Hududda harbiy harakatlar olib borilayotganligi yoki blokada holati e'lon qilinganligi;

3) Davlat organlarining qarorlari (masalan, pandemiya tufayli uzil-kesil cheklovlar) natijasida iste'molchining faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lganligi.

3.2.4.3. Fors-major tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bank va qarz oluvchi uchun ham aybdor bo'lmagan holatlar hisobga olinadi, shartnoma shartlarini shaffof va adolatli tarzda qayta muhokama qilish imkoniyati yaratiladi.

3.3. Yuqorida ko'rsatilgan har qanday asos bo'yicha restrukturizatsiya uchun ariza qarz oluvchi tomonidan yozma ravishda, tegishli holatni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga taqdim etilishi shart.

3.4. Har bir holat va belgi har tomonlama, alohida va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Bitta holat bir nechta asoslarni va belgilarni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, har bir belgining tegishli holatga mos bo'lishi shart.



4. KREDIT SHARTNOMALARINI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TURLARI

- 4.1. Restrukturizatsiya quyidagi turlar orqali amalga oshirilishi mumkin:
- 4.1.1. Kredit to'lovlari muddatini uzaytirish;
- 4.1.2. Kredit foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish
- 4.1.3. Kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun undirilgan jarima va penyalar miqdorini kamaytirish yoki bekor qilish;
- 4.1.4. Kredit bo'yicha to'lovlar jadvalini qayta ko'rib chiqish;
- 4.1.5. To'lov usulini o'zgartirish.
- 4.2. Mazkur nizomning 4.1. bandida ko'rsatilgan turlar ichidan birini qarz oluvchi tanlashi mumkin. Bunda belgilangandan boshqa restrukturizatsiya qilish turi qarz oluvchi tomonidan so'ralganda ariza ko'rib chiqilmaydi.
- 4.3. Restrukturizatsiya jarayonida faqat quyidagi shartlar o'zgartirilishi mumkin:
- 4.3.1. Kredit shartnomasining oxirgi muddati o'zgarmas holda oraliq to'lovlar va ularning miqdoriy taqsimotlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin;
- 4.3.2. To'lov jadval iste'molchining joriy daromad darajasiga moslashtirilishi mumkin;
- 4.3.3. Bitta kredit (mikroqarz) doirasida faqat bir marta o'zgartirish kiritish mumkin;
- 4.3.4. To'lov sanasi faqatgina oyning yigirmanchi sanasiga qadar o'tkazilishi mumkin.
- 4.3.5. Kredit muddati bo'yicha faqatgina to'lov jadvalidagi so'nggi 3 oylik qoldiq to'lovlar bo'yicha 6 oygacha bo'lgan muddatga uzaytirish belgilanishi mumkin.
- 4.3.6. Restrukturizatsiya doirasida kreditni so'ndirish usulini o'zgartirishga ruxsat etiladi, bunda annuitet yoki differensial to'lov usullari qo'llaniladi.
- 4.3.7. Kredit muddati uzaytirilganda garov, kafillik va sug'urta shartnomalari avtomatik ravishda uzaytiriladi. Mazkur uzaytirish belgilangan taqdirda sug'urta shartnomasi bo'yicha qo'shimcha to'lovlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjat bankka taqdim qilinishi shart.
- 4.3.8. Restrukturizatsiya kredit kartalari, overdraft, imtiyozli kreditlar, jalb qilingan resurslar hisobidan ajratilgan kreditlar va kredit qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan kredit mahsulotlarida alohida belgilangan kreditlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

5. QARZ OLUVCHILARNING ARIZALARINI QABUL QILISH VA RO'YXATGA OLIISH TARTIBI

- 5.1. Moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli kredit to'lovlarini o'z vaqtida so'ndirish imkoniyatiga ega bo'lmagan qarz oluvchi kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) bo'yicha mazkur Nizomga 1-ilovada ko'rsatilgan arizani to'ldirgan holda Bank (kredit (mikroqarz) shartnomasi imzolangan Bankning vakolatli bo'linmasi)ga murojaat qilish huquqiga ega.
- 5.2. Qarz oluvchining arizalari Bankning bosh ofisi yoki bankning tegishli bank tarkibiy bo'linmasiga bevosita tashrif buyurgan holda yozma shaklda qabul qilinadi.
- 5.3. Arizada majburiy tartibda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:
- a) Qarz oluvchining to'liq nomi (F.I.SH va pasport ma'lumotlari, yashash manzili);



- b) Kredit shartnomasining raqami va sanasi;
- c) Kredit to'lovlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar;
- d) Mijoz tomonidan tanlangan restrukturizatsiya qilish turi.
- e) Arizaning sanasi, kimga yo'llanilayotganligi.

5.4. Arizaga qarz oluvchining moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlarini tasdiqlovchi hujjatlar mazkur nizomning 6-bo'limida belgilangan hujjatlar ilova qilinishi shart.

5.5. Arizalar lozim darajada rasmiylashtirilib, kerakli hujjatlar ilova qiligidan so'ng mazkur arizaga ro'yxat raqami va sanasi bankning vakolatli organi tomonidan qo'yiladi. Shundan keyin, ariza nusxasi va unga ilovalari bilan birga vakolatli organ xodimlari tomonidan mazkur nizom va bankning ichki meyoriy hujjatlarida belgilangan tartibda arizani ko'rib chiqish bilan bog'liq tegishli tahliliy va yuridik ahamiyatga ega ishlar olib boriladi.

6. ARIZAGA ILOVA QILINADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI

6.1. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

6.1.1. Tibbiy xulosalar: Qarz oluvchining mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotganligini tasdiqlovchi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi (TIEK) xulosasi yoki uzoq muddatli statsionar davolanish haqida davlat tibbiyot muassasalarining belgilangan shakldagi ma'lumotnomalari;

6.1.2. O'lim guvohnomasi: Qarz oluvchi yoki uning birgalikda qarz oluvchisi (kafil) vafot etgan taqdirda, FHDYO organlari tomonidan berilgan o'lim haqidagi guvohnomaning nusxasi. Bunda mazkur holatda faqatgina merosxo'rlar aniqlangunga yoki meros rad qilingunga qadar oraliq to'lov miqdorlari saqlangan holda muddat uzaytirib berilishi mumkin.

6.1.3. Sud hujjatlari: Qarz oluvchining odam savdosi qurboni sifatida jinoyat ishi natijalariga ko'ra jabrlanuvchi sifatida tan olingan sud qarori.

6.1.4. Fors-major holatlarini (yong'in, tabiiy ofat, epidemiya, favqulodda holat) tasdiqlovchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi yoki boshqa vakolatli organlarning rasmiy dalolatnomalari va qarorlari;

6.1.5. Mehnat munosabatlariga oid hujjatlar: Ish beruvchi tomonidan shtat qisqartirilishi yoki korxona tugatilishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruq nusxasi hamda Bandlikka ko'maklashish markazidan ishsiz sifatida ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma;

6.1.6. Mazkur nizomning 6.1.1-6.1.5. bandlarida belgilangan hujjatlarning asli yoki rasmiy manbalarda e'lon qilingan shakli (davlat organlari qarorlariga nisbatan) vakolatli organga taqdim qilinishi shart.

7. ARIZALARNI KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI

7.1. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza, agar ushbu Nizomda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, Bank tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) bank kuni ichida ko'rib chiqiladi.

7.1.1. Quyidagi hollarda arizani ko'rib chiqish muddati Bankning tarkibiy bo'linmasi Kredit qo'mitasi tomonidan 30 (o'ttiz) kalendar kunigacha uzaytirilishi mumkin:



7.1.1.1. Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligini tekshirish uchun davlat organlari yoki uchinchi shaxslarga so'rovnomalar yuborish zarurati tug'ilganda;

7.1.1.2. Kredit bo'yicha garovga olingan mulkni qayta xatlovdan o'tkazish yoki uning joriy bozor qiymatini mustaqil baholovchi tashkilotlar orqali qayta baholash talab etilganda;

7.1.1.3. Mijozning moliyaviy ahvolini joyiga chiqqan holda o'rganish (monitoring) jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinganda;

7.1.1.4. Bankning vakolatli organlari (Kredit qo'mitasi yoki Boshqaruv) tomonidan masalani qo'shimcha tahlil qilish topshirig'i berilganda.

7.2. Arizani ko'rib chiqish muddati uzaytirilgan taqdirda, Bank bu haqda mijozni (yozma, elektron yoki telefon orqali) xabardor qiladi.

7.3. Muddatni to'xtatib turish:

7.3.1. Agar taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmasa yoki Bank tomonidan qo'shimcha hujjatlar so'ralsa, ko'rib chiqish muddati mijoz ushbu kamchiliklarni bartaraf etguniga qadar to'xtatib turiladi. Mijoz so'ralgan hujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab muddatning o'tishi qaytadan tiklanadi.

8. ARIZALARNI KO'RIB CHIQISH, BANK TOMONIDAN QAROR QABUL QILISH TARTIBI, BAHOLASH MEZONLARI

8.1. Mijozning arizasini qabul qilish, ro'yxatga olish va arizaga ilovalarning to'liqligini o'rganish mas'ul xodim tomonidan amalga oshirilib, arizani kompleks o'rganish va tegishli qaror qabul qilish uchun Bankning vakolatli bo'linmasi muhokamasiga kiritiladi.

8.2. Birlamchi tahlilni: Kredit (mikroqarz) ajratgan bank tarkibiy bo'linmasi qarz oluvchining arizasi ro'yxatga olingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

8.2.1. Taqdim etilgan hujjatlar ushbu Nizomning 5.3.-bandida belgilangan talablarga muvofiq ekanligini, arizaga ilova qilingan hujjatlar Nizomning 4 bobida belgilangan talablarga muvofiqligini va hujjatlarning to'liqligini tekshiradi;

8.2.2. Mijozning to'lov intizomi va joriy qarzдорlik holatini o'rganadi;

8.2.3. Kredit shartlarini o'zgartirishning iqtisodiy samaradorligi va maqsadga muvofiqligi to'g'risida dastlabki tahliliy ma'lumotnomani tayyorlaydi;

8.2.4. To'plangan hujjatlar paketini va o'z ma'lumotnomasini Tavakkalchilikni boshqarish Departamentiga – tegishli tavsiyalar olish uchun yuboradi.

8.3. Tavakkalchilikni boshqarish departamentining funksiyalari: Tavakkalchilikni boshqarish departamenti Bankning tarkibiy bo'linmasidan hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida quyidagi tahlillarni amalga oshiradi:

8.3.1. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritilishi natijasida Bankning kredit portfeli sifatiga va likvidligiga ta'sirini baholaydi;

8.3.2. Mijozning to'lov qobiliyati pasayishi sabablarini (moliyaviy qiyinchilik, fors-major) verifikatsiya qiladi va risk darajasini qayta aniqlaydi;

8.3.3. Garov ta'minotining joriy holatini va uning restrukturizatsiya qilingan kredit bo'yicha qoplash darajasini tahlil qiladi;

8.3.4. Kredit qo'mitasi uchun restrukturizatsiya qilishning joizligi yoki rad etilishi bo'yicha tavsiyalar shakllantiradi.

8.4. Bankning tarkibiy bo'linmasining Kredit qo'mitasi tomonidan qaror qabul qilish yo'li bilan arizani ko'rib chiqishni tamomlaydi. Kredit (mikroqarz) ajratgan



Bankning tarkibiy bo'linmasi yuqoridagi departamentining ijobiy / rad qilish bo'yicha tavsiyasini olganidan so'ng, masalani Kredit qo'mitasining navbatdagi / navbatdan tashqari majlisi kun tartibiga kiritadi:

8.5. Bankning tarkibiy bo'linmasining Kredit qo'mitasi barcha tahliliy materiallarni, risklar bo'yicha tavsiyalarni kollegial tarzda ko'rib chiqadi;

8.5.1. Arizaning Bankning ichki kredit siyosati va ushbu Nizom talablariga to'liq javob berishini tekshiradi;

8.5.2. Muhokama natijasiga ko'ra restrukturizatsiya qilish yoki rad etish to'g'risida yakuniy qaror qabul qiladi.

8.6. Qarorni rasmiylashtirish:

8.6.1. Kredit qo'mitasining qarori barcha a'zolar tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi;

8.6.2. Bayonnomada restrukturizatsiyaning aniq shartlari (yangi so'ndirish jadvali, imtiyozli davr, foiz stavkasi va h.k.) ko'rsatiladi;

8.6.3. Agar Bankning tarkibiy bo'linmasining Kredit qo'mitasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, mazkur Bayonnoma va qaror hamda qo'shimcha kelishuv loyihasi qaror qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida Yuridik xizmat departamentiga restrukturizatsiya qilinadigan kredit hujjatlariga qo'shimcha kiritish bo'yicha hujjat loyihalari ekspertizadan o'tkaziladi.

Kiritilayotgan o'zgartirishlarning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi;

Kreditning restrukturizatsiya qilinishi natijasida garov (ipoteka) shartnomalarining o'z kuchida qolishi yoki ularni qayta ro'yxatdan o'tkazish zaruriyatini aniqlaydi.

Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy risklar bo'yicha o'z xulosasini taqdim etadi.

8.7. Bank mijozning arizasini ko'rib chiqishda quyidagi asosiy mezonlarga tayanadi:

8.7.1. Insoflilik mezon: Mijozning kredit shartnomasi bo'yicha muammoli vaziyat yuzaga kelguniga qadar to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirganligi va bank bilan aloqada ochiq.

8.7.2. Sababning obyektivligi: Moliyaviy qiyinchiliklarning qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar natijasida yuzaga kelganligi.

8.7.3. Kelajakdagi to'lov qobiliyati: Kredit shartlari o'zgartirilgan taqdirda, mijozning yangi jadval asosida to'lovlarni amalga oshirish uchun yetarli daromad manbalariga ega ekanligi.

8.8. Holatlarga qarab qo'llaniladigan restrukturizatsiya turlari: Bank mijozning aniq vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi imtiyozlardan birini yoki bir nechtasini qo'llashi mumkin:

Mijozning holati (Vaziyat)	Tavsiya etiladigan imtiyoz turi
Daromadning vaqtincha pasayishi (masalan, mavsumiy ish, shtat qisqarishi)	Asosiy qarz bo'yicha imtiyozli davr: Mijozga 3 oydan 12 oygacha faqat foizlarni to'lash, asosiy qarzni qolgan oylarga tegishli taqsimot asosida esa imtiyozli davr tugagach to'lash huquqi beriladi.
Kasalxonada yotish yoki uzoq muddatli davolanish (I guruh nogironligi ariza berish arafasida belgilangan bo'lsa)	To'lovlar to'xtatib turilishi (Kredit ta'tili): Muayyan muddatga (odatda 3-6 oy) ham asosiy qarz, ham foiz to'lovlari to'liq to'xtatiladi, umumiy muddat o'zgarmagan



	holda imtiyozli davr uchun to'lovlarni boshqa oylarga taqsimlash orqali.
Homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollarning kreditlarini sog'lig'ining yomonlashishi oqibatida (Tug'ish qiyin kechgan, ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollar, Kesarcha kesish amaliyotini o'tkazganda)	To'lovlarning 1 oydan 10 oyga qadar asosiy qarz qismi bo'yicha imtiyozlar berish, bunda imtiyoz qo'llanilgan oylar uchun asosiy qarz to'lovlarni boshqa oylarga taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

8.9. Yuridik xizmat departamentiga hujjatlar to'liq kelgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida qo'shimcha kelishuv loyihasi qurilishiga yuridik xulosa beradi. Hujjatlarni o'rganish paytida quyidagilarni amalga oshiradi.

9. QARZ OLUVCHIGA QAROR TO'G'RI SIDA XABAR BERISH TARTIBI VA MUDDATI

9.1. Kredit qo'mitasining restrukturizatsiya qilish yoki rad etish to'g'risidagi bayonnomasi rasmiylashtirilgan kundan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida Bankning tarkibiy bo'linmasi mas'ul xodimi mijozni qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qilishi shart.

9.2. Bank qaror to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi aloqa kanallari orqali yuboradi:

9.2.1. Yozma shaklda – Mijozning arizasida ko'rsatilgan yashash manziliga pochta aloqasi orqali (buyurtma xat ko'rinishida);

9.2.2. Elektron shaklda: Bankning rasmiy mobil ilovasi (Push-xabarnoma), shaxsiy kabinet yoki arizada ko'rsatilgan elektron pochta manzili orqali;

9.2.3. Telefon aloqasi orqali: Mijozning telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish yoki bevosita qo'ng'iroq qilish orqali (suhbat audio-yozuv bilan qayd etilishi mumkin).

9.3. Qaror ijobiy bo'lgan taqdirda, mijozga yuboriladigan xabarnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

9.3.1. Restrukturizatsiyaning asosiy shartlari (yangi muddat, imtiyozli davr va h.k.);

9.3.2. Kredit shartnomasiga Qo'shimcha kelishuvni imzolash uchun Bankka tashrif buyurish muddati (odatda 3-5 bank kunida);

9.3.3. Taqdim etilishi lozim bo'lgan qo'shimcha hujjatlar (masalan, garov obyekti sug'urta qilish bo'yicha yangi polislar) ro'yxati.

9.4. Bank arizani rad etish haqida qaror qabul qilsa, mijozga yuboriladigan javob xatida rad etishning asoslantirilgan sabablari (masalan, hujjatlarning yetarli emasligi, moliyaviy ahvoldan o'ta yomonligi yoki noto'g'ri ma'lumot berilganligi va boshqalar) ko'rsatilishi shart.

9.5. Huquqiy oqibatlar va ijro:

9.5.1. Mijoz Bank tomonidan belgilangan muddatda (xabarnoma olingan kundan boshlab 10 bank kunidan oshmasligi kerak) Qo'shimcha kelishuvni imzolashga kelmasa yoki imzolashdan bosh tortsa, Kredit qo'mitasining qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi va bu to'g'risida qarz oluvchiga Nizomning 9.2 bandida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma yuboriladi.

9.5.2. Qo'shimcha kelishuv ikki tomonlama imzolanganidan va (zarurat bo'lsa) davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng, Bankning tarkibiy bo'linmasi belgilangan muddatda bank dasturiy ta'minotiga yangi to'lov jadvalini kiritadi va ijrosini ta'minlaydi.



10. ARIZA QANOATLANTIRILGAN TAQDIRDA KREDIT SHARTNOMASIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

10.1. Kredit qo'mitasining ijobiy qarori (bayonnomasi) kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish bo'yicha Qo'shimcha kelishuv tuzish uchun asos bo'ladi.

10.2. Yuridik xizmat departament tomonidan yuridik xulosa berilgandan so'ng, Qo'shimcha kelishuv Bank tarkibiy bo'linmasi va qarz oluvchi (shuningdek, kafil/garovga qo'yuvchi) tomonidan imzolaash yo'li bilan tasdiqlanadi.

10.3. Qo'shimcha kelishuvda quyidagi o'zgarishlar aniq aks ettirilishi shart:

10.3.1. Yangi tahrirdagi kredit so'ndirish jadvali (grafik) (agar ko'zda tutilgan bo'lsa);

10.3.2. Uzaytirilgan muddat yoki joriy etilgan imtiyozli davr (agar ko'zda tutilgan bo'lsa);

10.3.3. O'zgartirilgan foiz stavkalari (agar ko'zda tutilgan bo'lsa);

10.3.4. Tomonlarning yangi yoki o'zgartirilgan majburiyatlari.

10.4. Agar kredit muddati uzaytirilsa yoki kredit summasi tarkibi o'zgarsa, tegishli garov (ipoteka) va kafillik, sug'urta shartnomalariga ham qo'shimcha kelishuvlar rasmiylashtirilishi shart.

10.5. Ipoteka (ko'chmas mulk), kafillik, sug'urta shartnomalariga kiritilgan o'zgartirishlar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar qarz oluvchi tomonidan qoplanadi. Agar mazkur qo'shimcha kelishuvlar natijasida kelib chiqqan qo'shimcha to'lovlar qarz oluvchi tomonidan qoplanishi shart va bu bo'yicha qarz oluvchi bankka xabar berishi lozim.

10.6. Barcha hujjatlar imzolangandan so'ng, mas'ul xodim belgilangan muddatda bankning avtomatlashtirilgan bank tizimiga (iABS) tegishli o'zgartirishlarni kiritadi va yangi jadval asosida kredit monitoringini davom ettiradi.

10.7. Qo'shimcha kelishuv unda belgilangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

11. ARIZANI QANOTLANTIRISHNI RAD ETISH BO'YICHA QAROR QABUL QILINGANDA, BU TO'G'RISIDA ASOSLANTIRILGAN HOLDA ARIZACHIGA XABAR BERISH TARTIBI.

11.1. Bank Kredit qo'mitasining qaroriga asosan arizani qanoatlantirishni rad etgan taqdirda, javob xatida rad etishning sabablari aniq va batafsil ko'rsatilishi shart.

11.2. Rad etish uchun asos bo'luvchi namunaviy sabablar:

11.2.1. Taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki bir-biriga zid ma'lumotlar aniqlanganligi;

11.2.2. Mijozning moliyaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, hatto restrukturizatsiya qilingan taqdirda ham to'lov qobiliyati tiklanmaydi va qarzni qaytarish imkonsiz bo'lib qoladi;

11.2.3. Garov mulkining qiymati keskin pasayib ketganligi yoki garov obyekti bilan bog'liq huquqiy muammolar (sud jarayonida yoki meros masalalari mavjud bo'lsa) mavjudligi;

11.2.4. Mijoz tomonidan bank bilan hamkorlik qilishdan (monitoring o'tkazish, qo'shimcha hujjat berish) bosh tortilganligi.

11.3. Bildirishnoma yuborish:

11.3.1. Rad etish to'g'risidagi rasmiy xat (bildirishnoma) Bank blankasida shakllantiriladi va vakolatli rahbar tomonidan imzolanadi.



11.3.2. Bildirishnoma qaror qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida mijozga uning arizasida ko'rsatilgan usulda (pochta, elektron pochta yoki shaxsan topshirish) yuboriladi.

11.4. Rad etishning oqibatlarini:

11.4.1. Arizaning rad etilishi mijozning kredit shartnomasi bo'yicha amaldagi majburiyatlarini o'zgartirmaydi.

11.4.2. Bank amaldagi shartnoma shartlari asosida qarzdorlikni undirish choralari, jumladan garov mulkiga qaratish yoki sud tartibida undirish jarayonlarini davom ettirish huquqini saqlab qoladi. Ushbu shart qo'shimcha kelishuvda belgilangan bo'lishi lozim.

12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Ushbu hujjat Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Yuridik xizmat departamenti Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limida ro'yxatga olingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

12.2. Ushbu hujjatning ayrim normalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/ yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu normalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur normalar bilan tartibga solinadigan masalalarda amaldagi qonun hujjatlardan amal qilish lozim


12.3. Hujjatning asl nusxasi Yuridik xizmat departamenti Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limida saqlanadi va nusxalarni taqdim etilishi nazorati amalga oshiriladi.

12.4. Hujjatni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirishlar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish va boshqa holatlar hujjat ishlab chiquvchisi tomonidan Bank Boshqaruvinin 2024 yil 23 maydagi 54-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan 5-tahrirdagi "Orient Finans" XATBda hujjatlar yuritish tartiboti"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Matn yakuni

ISHLAB CHIQLDI:

Chakana biznes
Departamenti Direktori


A.A. Ismatov.

KELISHILDI:

Yuridik xizmat Departamenti
Direktori


T.U. Umarov

Tavakkalchilikni boshqarish Departamenti
Direktori

Sh.U. Shadmanov

Korrupsiyaga qarshi kurashish kompayens
boshqarmasi boshlig'i


Sh.Sh. Shamansurov



Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiyinalayotgan qarz oluvchining "Orient Finans" XATB tizimida berilda amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish to'g'risidagi Nizomiga

1-ilova.

Ariza

(Moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli kredit to'lovlarini o'z vaqtida so'ndirish imkoniyatiga ega bo'lmagan qarz oluvchi kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) bo'yicha)

"Orient Finans" XATB _____ Amaliyot boshqarmasi/BXM/BXO nomidan boshqaruvchi F.I.Sh. va qarz oluvchi F.I.Sh. o'rtasida 20 ____ yil ____ da tuzilgan _____-sonli _____ krediti (mikroqarz) shartnomasiga quyidagilarga ko'ra o'zgartirish kiritishingizni so'rayman:

Kredit to'lovlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar:	
Restrukturizatsiya qilish uchun asos	1. Moliyaviy qiyinchilik: 2. Murakkab hayotiy vaziyat: 3. Fors-major holati 4. *izoh: ushbu asoslardan biri yoki bir nechta tanlanadi.
Restrukturizatsiya belgilari	1. Moliyaviy qiyinchilik: a) Qarz oluvchining rasmiy daromadlarining 3 oy yoki undan ortiq muddat davomida 70% dan ortiq miqdorda pasayishi. (O'zini o'zi band qilgan shaxslarga nisbatan nizomning boshqa me'zonlari qo'llaniladi); b) Ko'rib chiqilayotgan vaqt davomida qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish qobiliyatini izchil ravishda buzgan boshqa tasdiqlangan moliyaviy qiyinchiliklar. 2. Murakkab hayotiy vaziyat: a) Qarz oluvchining yagona boquvchisini yo'qotganligi (o'limi) va buni tasdiqlovchi hujjatlar (o'lim guvohnomasi) mavjudligi; b) Sud hukmi bilan qarz oluvchining odam savdosi jinoyati jabrlanuvchisi sifatida e'tirof etilganligi va bu holat uning moddiy ahvoriga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganligi. c) Qarz oluvchiga yoki unga qaram bo'lgan shaxsga og'ir kasallik tashxisi qo'yilganligi va bunga rasmiy tibbiy hujjatlar (kasalxona yoxud ekspertiza



	xulosalari) bilan tasdiqlangan I guruh nogironlik maqomi berilganligi; 3. Fors-major holati a) Davlat organlari tomonidan rasman e'lon qilingan tabiiy ofat (zilzila, toshqin, ko'chki) yoki favqulodda vaziyat zonasi hududida qarz oluvchining yashash joyi yoki mol-mulkining joylashganligi; b) Hududda harbiy harakatlar olib borilayotganligi yoki blokada holati e'lon qilinganligi; c) Davlat organlarining qarorlari (masalan, pandemiya tufayli uzil-kesil cheklovlar) natijasida iste'molchining faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lganligi.
Restrukturizatsiya turi	1. Kredit to'lovlari muddatini uzaytirish 2. Kredit foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish 3. Kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun undirilgan jarima va penyalari miqdorini kamaytirish yoki bekor qilish; 4. Kredit bo'yicha to'lovlar jadvalini qayta ko'rib chiqish; 5. To'lov usulini o'zgartirish. * mazkur turlardan faqatgina 1 (bittasi) tanlash mumkin va faqat 1 (bir) marta foydalansa bo'ladi.
Kredit to'lovlari muddatini uzaytirish tanlangan bo'lsa qancha muddatga?	1 (bir) oyga 2 (ikki) oydan 4 (to'rt) oygacha 5 (besh) oydan 10 (o'n) oygacha * Kredit qaytarilishi va taqdim qilingan hujjatlar o'rganilishi natijasida qarz oluvchiga boshqa muddat taklif qilinishi mumkin.
Mazkur arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomlari	1. 2. 3.
Kredit bo'yicha foiz stavkasi o'zgartirish kiritish so'ralgan bo'lsa, qancha foizga	yillik 0%
Kredit bo'yicha to'lovlar jadvalini qayta ko'rib chiqish so'ralgan bo'lsa, qaysi sanaga o'zgartirish lozimligi	har oyning ____ sanasida • Har oyning 20 sanasiga qadar belgilash mumkin.
Restrukturizatsiya natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'lovlar miqdori	1. Sug'urta to'lovlar - ____ so'm 2. Ipoteka (garov) shartnomasini o'zgartirish kiritish talab qilingan hollarda, qo'shimcha kelishuv uchun ketadigan to'lovlar - ____ so'm 3. Boshqa to'lovlar (agar mazkur restrukturizatsiya natijasida yuzaga kelgan to'lovlar) - ____ so'm



To'lov usulini o'zgartirish so'ralgan bo'lsa, qaysi to'lov usuli	Annuitet yoki differensial
--	----------------------------

O'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman:

Pasport ma'lumotlari	Seriyasi _____ y. berilgan 00.00.202 y. dan
Ro'yxatdan o'tish joyining manzili	
Yashash joyi bo'yicha manzili	
Bandlik sohasi (ish joyi)	
Hozirda ish joyidagi tashkil etadigan o'rtacha oylik daromadlari	0,00 so'm.
Plastik karta raqami	
SHJBPH raqami	SHJBPH - _____
Qo'shimcha daromadlar	-
Birgalikda qarz oluvchilar soni va tarkibi	
Birgalikda qarz oluvchilarning o'rtacha oylik daromadlari	0,00 so'm
Kafil ma'lumotlari	
Qaramog'ida bo'lgan shaxslar soni	
Oylik to'lovlar (xarajatlar) hajmi	0,00 so'm
Kredit tarixi	
Jadval turi	Annuitet/differensial

Shu bilan birga men: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining KADR (Kredit axborotining davlat reyestri)ga, kredit byurolariga, garov reyestriga berilgan kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish va o'zim haqimda kredit ma'lumotlarini olishga va mening ish haqim, MIBdagi qarzdorlik haqidagi ma'lumotni olishga va to'lov qobiliyatimni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar olish uchun tegishli organlarga so'rov yuborishga **rozilik bildiraman**. Restrukturizatsiya natijasida yuzaga keladigan majburiyatlarni bajarishga, shuningdek, men qo'shimcha kelishuvda belgilangan shartlarda kredit to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq to'lashga kafolat beraman.

Ushbu arizaning imzolanishi va uning Bank xodimi tomonidan qabul qilinishi bank tomonidan qarz oluvchining kredit (mikroqarz) shartnomasini restrukturizatsiya qilish majburiyatlarini tan olganligini anglatmaydi.

Ushbu bilan bankning tarkibiy bo'linmasi kredit qo'mitasi tomonidan kredit (mikroqarz) shartnomasini restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ijobiy qaror qabul qilingan, kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv imzolangan va restrukturizatsiya uchun ko'rsatilgan barcha shartlar bajarilgan taqdirda, mening kredit shartnomamni restrukturizatsiya qilishingizni so'rayman.

Qarz oluvchi – F.I.Sh.

(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi – F.I.Sh.

(imzo)

Sana **202**__y. «__» _____